



## AKADEMIK BILIM VA OLIY TA'LIM INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHDA NODIR QO'LYOZMALARING O'RNI

Salayeva Muborak Saburovna

Professor v.b., Nizomiy nomidagi

Toshkent davlat pedagogika universiteti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10453757>

### ARTICLE INFO

Received: 26<sup>th</sup> December 2023

Accepted: 01<sup>st</sup> January 2024

Online: 02<sup>nd</sup> January 2024

### KEY WORDS

Ajdodlar, meros, bitik, nodir qo'lyozma, muzey, tarix, madaniyat, san'at, adabiyot, axloq, falsafa, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tabiiy va aniq fanlar, arab, fors, turk, hind, urdu, pushtu, mongol, siam, sanskrit, yutuq, kashfiyat, vizual to'plam.

### ABSTRACT

*Maqolada O'zbekiston Milliy universitetining o'quv va o'quv jarayonida Axborot resurs markazi qoshidagi "Noyob qo'lyozmalar" muzeyining qadimiy qo'lyozmalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani haqida so'z boradi.*

Ma'lumki, o'tmish ajdodlarimizdan qolgan behisob ilmiy-ma'rifiy, ma'naviy-madaniy va ijtimoiy-siyosiy meroslar, ya'ni:

- ✓ o'z davri haqida qimmatli ma'lumot beruvchi qo'lyozma va toshbosmalar;
- ✓ turli davrlarda hukmdorlar tomonidan chiqarilgan farmonlar;
- ✓ amaldor va hokimlarning vasiqa hujjatlari xalqimizning uzoq vaqtidan buyon yuksak me'yor va maqsadlarga amal qilganligidan dalolat beradi.

Bu esa, o'z navbatida, tarixi boy xalqimizning jahon tsivilizatsiyasi rivojlanishiga katta hissa qo'shganligini ko'rsatadi.

Ayniqsa, o'rta asrlarda mamlakatimiz hududida minglab olimlar, shoirlar, buyuk mutafakkirlarning ijod qilishgan. Ular Sharq va G'arbni bir-biriga bog'lab, mamlakatimizni ilm-fan va madaniyatning birlashuvi asosida rivojlantirib buyuk tsivilizatsiyalar maskaniga aylantirishgan.

Insoniyat tamadduni jarayoni muhrlab qoldirilgan mazkur bitiklar tarix, madaniyat, san'at, adabiyot, axloq, falsafa, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, shuningdek, tabiiy va aniq fanlar singari bir qator yo'nalişlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda kalit vazifasini o'taydigan muhim manbadir. Ularni o'rganish bo'yicha hali olimlarimiz oldida ulkan vazifalar turmoqda. Shu nuqtai nazardan, Prezidentimizning 2017-yil 24-maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mazkur sohaga qaratilgan yuksak e'tiborning amaliy ifodasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi [1].



Qadimiy qo'lyozma va toshbosmalarni tadqiq qilish fidoyilikni talab qiladigan juda mashaqqatli ish hisoblanadi. O'zbekiston Milliy universiteti Axborot Resurs markazi qoshidagi "Nodir qo'lyozmalar" muzeyida 1465 nomdagi kitob mavjud bo'lib, Bulardan 523 tasi qo'lyozma va 942 tasi toshbosmalardir [5].

Sharq kitoblari fondida O'rxun-Enisey toshbitiklaridan tortib, O'rta Osiyo xalqlari, Yaqin va Uzoq Sharq mamlakatlari xalqlari – arab, fors, turk, hind, urdu, pushtu, mongol, siam, sanskrit va boshqa tillarda bayon etilgan kitobu sahifalardir. Muzeyda saqlanayotgan ushbu noyob manbalarni o'rganib, ularni tahlil qilish tariximizga oid ma'lumot jumboqlarni ochishda alohida o'rinni tutadi [6]. Shuningdek, mazkur tarixiy manbalar oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, tarbiya va ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda ham muhim rol o'yaydi.

Buyuk allomalarimizning ilm-fanning aniq, tabiiy, gumanitar sohalari va islom ilmlari bo'yicha yaratgan asarlari tadqiqini kengaytirish hamda ularni asl matn va ilmiy izohli tarjima shaklida nashr etib, ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy qilish kabi vazifalar yangi tadqiqotlar uchun asos bo'ladi. Shu nuqtai nazardan muzeydagi mavjud tarixiy manbalar turli fan va ilmiy tadqiqot ishlari, jumladan, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik, PhD va doktorlik dissertatsiyalarini bajarish uchun eng boy manbadir. Bu, o'z navbatida, salohiyatli kadrlarga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2014-yil 8-iyuldaggi PQ-2204-sonli "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tuzilmasini yanada maqbullashtirish hamda respublika akademik ilm-fani va oliy ta'limining integratsiyasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori [2] ijrosini ta'minlash maqsadida muzeydagi qadimiy qo'lyozmalarni tadqiq qilish sohasida:

- O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Toshkent Islom universiteti, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O'zbekiston Islom tsivilizatsiyasi markazi bilan hamkorlikda Xalqaro ilmiy aloqalarni rivojlanтирish;
- fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda ilmiy aloqa va hamkorlikni mustahkamlash;
- grant va byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan fundamental ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtirishda ishtirok etish;
- O'zbekiston manfaatlariga muvofiq jahon fani yutuqlariga hissa qo'shadigan jihatlarni o'rganish va tahlil qilish;
- jahon iqtisodiyotining texnologik rivojlanishini prognozlash imkoniyatini beruvchi fundamental fan yutuqlari asosidagi ishlanmalarni yaratish va unda O'zbekiston rolini aniqlash;
- yozma manbalar doirasida davlat ilmiy-texnik siyosatini ishlab chiqish va joriy qilishda qatnashish;
- o'tmis ajdodlarimiz tajribalari asosida O'zbekiston hududi va xorij mamlakatlarda tabiatni muhofaza qilish siyosatini ishlab chiqish va joriy qilishda yirik dastur va loyihibar ekspertizasida qatnashish;
- noyob manbalardagi fan-texnika yutuqlarini joriy qilish borasida innovatsion faoliyatda ishtirok etish;



- tarixiy tajribalar asosida O'zbekiston qonun hujjatlari va O'zbekistonning xalqaro shartnomalariga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish, Xalqaro dastur va loyihalarda ishtirok etish;
- Buyuk allomalarimizning ilmiy bilim va ilmiy-texnik yutuqlari bilan ilm-fanni targ'ib qilish va ommalashtirishda ishtirok etish;
- muzeydagi mavjud kollektsiyalarga tayangan holda fanlar moddiy bazasini rivojlantirishga yo'naltirilgan takliflar tayyorlash va chora-tadbirlarni joriy qilish;
- muzeyda xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash va ilmiy tadqiqotchilar ijtimoiy himoyalanishini mustahkamlash va h.k.

Albatta, davlatimiz rahbarining qaroriga asosan, O'zbekiston Milliy universiteti Axborot resurs markazi qoshidagi "Nodir qo'lyozmalar" muzeyida saqlanayotgan manbalar tariximiz ko'zgusi bo'lib, ularning ta'limgarayonida tutgan o'rni kattadir [5].

Muzeydagi Sharq kitoblari fondi o'qituvchi va talabalarning ta'limgarayoni uchun nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi resurslar hisoblanadi. Ayni paytda muzey faoliyatini o'quv jarayoniga an'anaviy ravishda kiritish hamda talabalar, o'qituvchilar, tadqiqotchilar va mehmonlarda ta'limgarayoniga madaniyatini yaxshilash uchun turli xil innovatsion imkoniyatlar mavjud. Shuningdek, mazkur muzey kollektsiyalaridan o'quv jarayonida foydalanish orqali ta'limgarayoniga vazifa va faoliyatini zamonaviy talablar asosida samarali tashkil etish va talabalarning ta'limgarayoniga o'shlash darajasini ko'tarish imkonini beradi.

Muzeyda olib boriladigan mashg'ulotlar ta'limgarayoniga o'shlash uchun nazariy bilim va amaliy ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantirishga qaratilgan maqbul amaliy mashg'ulot hisoblanadi. Amaliy mashg'ulotlar davomida muzey fondidagi raqamli kollektsiyalaridan foydalanish asl manbalar bilan ishslash bilan birga, ma'ruza mazmunli va tadqiqotchilar va mehmonlarda ta'limgarayoniga tafsiflash va namoyish etish imkoniyatini beradi. Shuningdek, talabalar bu jarayonda muzey kollektsiyalarini birlamchi hisobga olish, ularni tizimlashtirish va tasniflash, shuningdek, saqlash va narsalarni namoyish etishning asosiy usullarini o'zlashtirib borishadi.

Muzey talabaning identifikatsiyasini shakllantirishda ham muhim rol o'yndaydi. Chunonchi, undagi mavjud noyob qo'lyozma va tarixiy manbalardan barcha fan doirasida o'quv jarayonida foydalanish katta yordam beradi. Muzey negizida qadimiy qo'lyozma va toshbosma manbalari bo'yicha nazariy kurslar va o'quv amaliyotini tashkil qilish asl manbalar asosida mutaxassislikka oid ma'lumotlarni to'plashga o'rgatish o'qitish tizimini noan'anaviy shaklga aylantirishga ko'maklashadi. Bu esa, o'z navbatida, talabalariga individual, mustaqil ta'limgarayoniga o'shlash bilan birga amaliy mashg'ulotlarni samarali o'tkazish imkonini ham beradi [4].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, muzey ushbu oliy ta'limgarayoniga o'shlash uchun nazariy bilim va amaliy faoliyatning asosiy yo'nalishlari haqida ham ma'lumot beruvchi maskandir. Muzey fondida saqlanayotgan manbalar asosida ilmiy fan yutuqlari va kashfiyotlari haqidagi vizual to'plamlar yordamida ma'lumotlar berish imkoniyati mavjud. Muzeyda talabalar uchun ko'rgazmalar tashkil qilish ularning ilmiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi.

Muzeydagi noyob qo'lyozmalar Sharq mamlakatlari hududlarining tarixi, madaniyati, tabiatini o'rganishga imkon beruvchi tematik kollektsiyalarini o'z ichiga olganligi sababli ulardan navqiron avlod tarbiyalashda ham foydalanish maqsadga muvofiqliroqdir. Bu manbalar



talabalarning mamlakatimiz tarixi va milliy madaniyatimizga qiziqish va diniy bag'rikenglik munosabatlarini shakllantirish uchun muhim omil hisoblanadi. Shu sababdan nodir qo'lyozmalarining pedagogik salohiyati turkiy xalqlar madaniyati, ta'lif-tarbiya uslublari bilan belgilanadi.

Shu nuqtai nazardan, talabalar uchun muzey sohasida umumiy va maxsus bilim darajasini oshirish maqsadida ta'lif jarayoni bilan uzviy ravishda ko'rgazma va madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu soha mutaxassislari bilan talabalar, magistrler, mustaqil tadqiqotchilar va doktorantlarning mustaqil ilmiy faoliyatini shakllantirishda ilk qadam bo'ladi.

Ta'lif maskanlari muzey fondidagi qadimiy manbalar asosida fan yutuqlarining tarixiy negizlarini namoyish qilish uchun ajoyib imkoniyatdir. Talabalar o'quv jarayonida muzeyga sayohat vaqtida olingan bilim ularning qo'shimcha ta'lif olish imkoniyatini hamda tanlagan mutaxassisligiga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. Shuningdek, muzey estetik ta'lif maskani hisoblanib, ilm-fan resursi sifatida muzeyning haqiqiy manbalarini o'rganish (masalan, qo'lyozma va toshbosma kollektiviyalari) talabalarning badiiy va estetik madaniyatini shakllantiradi.

O'zMUNing ARM qoshidagi "Nodir qo'lyozmalar" muzeyning ilmiy-ma'rifiy va ekspozitsiya markazi sifatida o'rni juda katta. Jumladan, muzeyga nafaqat universitet o'qituvchi va talabalari, balki yaqin va uzoq xorijiy mehmonlar ham tashrif buyurishadi [5].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, "Nodir qo'lyozmalar" muzeyining istiqboldagi faoliyati talabalarga o'quv jarayoni bilan bog'liq tarzda zamонави axborot texnologiyalari asosida tarixiy va madaniy meroslarimiz kollektiviyalarining qiymatini muntazam va samarali o'rganib, tushuntirishdan iborat.

Mamkattimizda akademik ilm-fani va oliy ta'lifning integratsiyasini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Milliy universiteti Axborot Resurs markazi qoshidagi "Nodir qo'lyozmalar" muzeyidagi qadimiy yozma manbalarni o'rganish va tadqiqini kengaytirish hamda ularni asl matn, ilmiy izohli tarjima shaklida nashr etish va ta'lif-tarbiya jarayoniga joriy qilish borasida quyidagi *tavsiyalarni* berishni lozim topdik:

- O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Imam Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi, O'zbekiston Islom tsivilizatsiyasi markazi bilan hamkorlikda Xalqaro ilmiy aloqalarni rivojlantirish;
- talabalarning ilmiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiluvchi ilmiy fan yutuqlari va kashfiyotlari haqidagi vizual to'plamlar yaratish hamda ular uchun muntazam ravishda ko'rgazmalar tashkil qilish;
- talabalar, magistrler, mustaqil tadqiqotchilar va doktorantlarning mustaqil ilmiy faoliyatini shakllantirish uchun ta'lif bilan muzeyning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish;
- ta'lif oluvchilar muzey kollektiviyalarining O'zbekiston manfaatlariga muvofiq jahon fani yutuqlariga hissa qo'shadigan jihatlarini o'rganishlari borasida ularni fundamental va ilmiy-amaliy tadqiqotlar loyihalarida ishtirokini ta'minlash;
- talabalarda mamlakatimiz tarixi va milliy madaniyatimizga qiziqish uyg'otish hamda ularda diniy bag'rikenglik munosabatlarini shakllantirish uchun nodir qo'lyozmalarining



pedagogik salohiyatini belgilovchi hamda turkiy xalqlar madaniyati va ta'lif-tarbiya uslublarini yorituvchi rolik, buklet, plakat va, bannerlarni ishlab chiqish;

talabalarning badiiy va estetik madaniyatini shakllantirish maqsadida muzeyning haqiqiy asl manbalari (qo'lyozma va toshbosma kollektsiyalari)dan foydalanishga imkoniyat yaratish maqsadga muvofiqdir.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2014-yil 8-iyuldagagi PQ-2204-sonli "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tuzilmasini yanada maqbullashtirish hamda respublika akademik ilm-fani va oliv ta'liming integratsiyasini mustahkamlash choratadbirlari to'g'risida"gi Qarori / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 32сон, 396-modda; 2017 y., 23-сон, 447-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagagi PQ-2995-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi Qarori / "Xalq so'zi", 2017 yil 25-may.
3. Казанцева О.А. Роль музеев Удмуртского государственного университета в учебном процессе вуза // Музеи университетов Евразийской ассоциации и их роль в сохранении культурного наследия: ИИ Международная научно-методическая конференция. 25–29 сентября 2016 г. Томск: Изд-во Том. ун-та, 2016. С. 107–111.
4. Мельникова Г.Ф., Гильманшина С.И. Музеи университета как фактор поликультурного воспитания молодежи // Современные проблемы науки и образования. 2015. № 4. С. 225–232.
5. Салаева М.С., Кислицына И.Л., Салаева М.С. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетида сақланаётган ноёб қўлёзмалар коллекциялари. Монография. Рангли, фото-безакли нашр. Т.: Университет, 2017. –112 б.
6. Салаева М.С. Нодир асарлар – халқимизнинг маънавий мероси сифатида // Информационно-библиотечный вестник «INFOLIB». Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси. – 2018. – Б.78-81.